

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Kimyo-texnologiya» fakulteti

«Kimyoviy texnologiya» kafedrası

**«Sintetik va tabiiy yuqori molekulali birikmalar kimyoviy texnologiyasi»
fanidan**

KURS LOYIHA

**Mavzusi: Texnik plastina (polik) olish bo'limini loyixalash (ishlab
chiqarish quvvati yiliga 95 000 dona)**

Bajardi:

9au-12 guruh talabasi

Turg'unboyev.I

Qabul qildi:

Ass. Qodirxonov J.M.

Namangan – 2016 yil

MUNDARIJA

Kirish -----	3
Xomashyo va materiallar tavsifi-----	6
Tayyor mahsulot tavsifi-----	13
Tehnologik jarayon asosiy parametrlari-----	15
Xom-ashyo va materiallar moddiy balansi-----	21
Asosiy va yordamchi jihozlarni tanlash va hisobi-----	27
Atrof-muhit va mehnat muxofazasi-----	32
Xulosa-----	37
Foydalanilgan adabiyotlar-----	38
Internet materiallari-----	39

Kirish.

Xozirgi kunda ishlab chiqarish soxasi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Jumladan Kimyo-texnologiya soxasi xam. Birgina olib qaraganda Avtomobillar uchun texnik rezinadan olinadigan poliklar misolida ko'rishimiz mumkin. Prezident I.A.Karimov "Yurboshimiz aytganlaridek Respublikamizni ishlab chiqarishni rivojlanishiga u qanday soxa bo'lmasin avvalo sifat darajasiga etibor bermog'imiz kerak". Xaqiqatan xam shuni aytish joizki xozirda yurtimizda Johon talablariga mos maxsulotlar ishlab chiqarib kelinmoqda jumladan rezina po'liklari xam.

Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida mamlakatimiz kimyo sanoatida izchil rivojlantirish sohasidagi korxonalar quvvatidan oqilona foydalanib eskport va raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga alohida etibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda ishlab chiqruvchilarning har tomonlama qo'llab quvvatlanayotgan soha rivojida xizmat qilmoqda. Tarmoq va tarmoq hamkorligi mustahkamlanmoqda texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlanayotgan korxonalarda zamon talablariga mos raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z kimyo sanoat kompanyasida ma'lum qilishlaricha joriy yilning 1-dekabrigacha soha korxonalariga xomashyo o'z vaqtida yetkazib berilgan.

Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobar ko'pdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlarida va 2014-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining majlisiga asoslangan 2014-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentimiz Islom Karimov 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda bag'ishlangan avvalo keyingi yilda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan turli salbiy siyosatlarni va turli salbiy oqibatlarni atroflicha tahlil etish. 2015-2016 yilliga Namangan shaxri va Namangan vilovatini sanoatini rivojlantirish maqsadida katta pul ajratildi va bu borada Pop, To'raqo'rgon, Mingbuloq shaxarlarida ishlab chiqarish korhonalari qurilishi ko'zda tutilmoqda.

Kimyo sanoati — og‘ir sanoat tarmoqlaridan biri, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlari: kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o‘g‘itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va boshqa.), plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, sellyuloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo‘yoq materiallari, sintetik bo‘yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va boshqani ishlab chiqaradi. Kimyo sanoatining mustaqil sanoat tarmog‘iga aylanishi sanoat to‘ntarishi bilan bog‘liq. Sulfat kislota ishlab chiqarish bo‘yicha dastlabki zavodlar 1740 yilda Buyuk Britaniyada (Richmond), 1766 yilda Fransiyada (Ruan), 1805 yilda Rossiyada (Moskva gubernyasi), 1810 yilda Germaniyada (Leypsig yaqinida) barpo etilgan.

To‘qimachilik va shisha-oyna sanoatining rivojlanishi bilan soda ishlab chiqaradigan zavodlar qurildi. Bunday korxonalar — soda zavodlari Fransiyada 1793 yilda (Parij yaqinida), Buyuk Britaniyada 1823 yilda (Liverpul), Germaniyada 1843 yilda (Elba bo‘yidagi Shyonebek shaxarida), Rossiyada 1864 yilda (Barnaul)da qurildi. 19-a. o‘rtalaridan Buyuk Britaniya (1842), Germaniya (1867), Rossiya (1892)da sun‘iy o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan zavodlar ishlay boshladi. AQShda kimyo sanoatining Yevropa mamlakatlariga nisbatan kechroq paydo bo‘ldi, lekin 1913 yilda kelib kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha jahonda 1-o‘ringa chiqib oldi.

O‘zbekistonda tegishli xom ashyo manbalari bo‘lishiga qaramay 30- yillarigacha kimyo sanoatining deyarli yo‘q edi. 1910-yillarda ohak kuydirish, o‘simlik bo‘yog‘i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, sovungarlik bilan shug‘ullangan bir qancha kichik korxonalar (12 sovun zavodi, neftni haydash zavodi, 2 bo‘yoq fraksiasi) bo‘lgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi 1932 yil qadimdan oltingugurt qazib olingan Sho‘rsuv oltingugurt koni (Farg‘ona vodiysi) ning ishga tushirilishi bilan boshlandi. Bu korxona sobiq SSSRda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57% ini bergan va Itti-foqning oltingugurt mustaqilligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynadi. Kimyo sanoatining eng yirik korxonasi Chirchiq elektr kimyo 1940 yilda oktabiridan mahsulot

bera boshladi. Shu yili 608,9 t ammiak, 961,7 t kuchsiz azot kislotasi va 930 t ammiak selitrasi ishlab chiqarildi. 1940 yilda respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida kimyo sanoati hisssasi 0,8% ni, kimyo sanoatida band bo'lgan ishchilar soni sanoat ishchilarining 1% ni tashkil etgan, sanoat ishlab chiqarish fondining 7,4% kimyo sanoati hissasiga to'g'ri kelgan.

Urushdan keyingi yillarda 1946 yilda Qo'qon, 1957 yilda Samarqand superfosfat zavodlari ishga tushirildi va bu zavodlar respublika qishloq xo'jalikning fosforli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qildi. Buxoro viloyatida Gazli gaz koni ishga tushirilishi bilan tabiiy gazdan foydalanish asosida 1963 yilda Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi, 1964 yilda Navoiyda kimyo kompleksi ishlay boshladi.

Rezina mahsulotlari Angren "Rezinatexnika" AJ (1975) da ishlab chiqariladi. Ilgari, asosan, rezina mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Rezinatexnika" AJ 1987 yilda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishga o'tdi. 1992 yilda birlashmada yengil avtomobil shinalarini tayyorlash o'zlashtirildi. 1996 y.dan yiliga yengil avtomobillar uchun 1,5 mln. dona, yuk avtomobillari uchun 200 ming dona shina ishlab chiqaradigan quvvatlar ishga tushirildi.

Respublikada plastmassa va propilen mahsulotlarini qayta ishlovchi (Ohangaron "Santexlit", "Jizzaxplastmassa" AJ), turli markadagilok – bo'yoq mahsulotlari ("Toshkent lok-bo'yoq zavodi" AJ, 1946), mebel sanoati uchun sintetik smolalar (Farg'ona furan birikmalari zavodi), maishiy kimyo tovarlari ["Maishiy kimyo" AJ (Toshkent sh.), 1987; Olmaliq maishiy kimyo zavodi, 1971 (hoz. Rossiyadagi "Kalina" konsernining "Pallada-Vostok" shoba korxonasi); Toshkent yog'-moy kombinati tarkibida sintetik yuvish vositalari zavodi, 1971] ishlab chiqariladigan korxonalar ishlaydi.

2000 yilda respublika sanoati mahsulotlari umumiy hajmida kimyo sanoati (neft kimyosi sanoati bilan birga) hisssasi 6,1 % ni tashkil etdi. 832 ming t mineral o'g'itlar (100% ozik, modda hisobida), 15 ming t sintetik smolalar va plastik massalar, 14,7 ming t kimyoviy tola va iplar, 985 ming t sintetik ammiak, 823,4 ming t sulfat kislota, 287 ming t oltingugurt va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Xomashyo va materiallar tavsifi

Kauchuk (tupi tilida "kau" — daraxt va "uchu" — oqmoq) — rezina va rezina buyumlari tayyorlashda ishlatiladigan elastik material. Tabiiy va sun'iy (sintetik) xillarga bo'linadi.

Tabiiy kauchuk. — asosan, Braziliya geveya daraxtining sutsimon shirasi — lateks va kauchukli daraxtlardan olinadi. Olingan lateks qayta ishlanib, xom — texnik kauchuk. hosil qilinadi. Uning tarkibida 93—94% kauchuk, 2,4—2,9% oqsil, 0,3% kul, 0,3% kand moddalari va 2,5—3% smola bor. Toza tabiiy kauchuk yuqori molekulali to'yinmagan uglevodorod, tarkibi (S5N8)p. Mol. m. 150 mingdan 500 minggacha boradi, zanjirining uz. 10000—40000 A, ko'ndalang kesimi 1,5—3 A gacha. Tabiiy kauchuk molekulasining bu kattaligi va shakli uning eng muhim xususiyati elastikligini ko'rsatadi. Tabiiy kauchuk yog' va aromatik uglevodorodlarda va ularning hosilalarida, mas, benzin, benzol, xloroformlarda erib, yopishqoq eritma yelim hosil qiladi. Tabiiy kauchuk to'yinmagan birikma bo'lgani uchun vodorod, galogenlar, oltingugurt va kislorod bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada uning eruvchanligi, mustahkamligi, elastikligi va bilan fizik, mexanik xossalari o'zgaradi. Xom kauchuk oltingugurt bilan reaksiyaga kirishib yuqori sifatli rezinaga ([Vulkanizatsiya](#)) aylanadi. Tabiiy kauchuk, odatda, amorf holatda bo'ladi, lekin vaqt o'tishi bilan kristallanishi mumkin. Yuqori elastikligi, suv va gaz o'tkazmasligi, elektroizolyasion xususiyati va yemiruvchi muhitlarga chidamliligi tufayli kauchuk texnika va turmushda ko'p ishlatiladi. Indoneziya, Malayziya, Tailand, Hindiston, Xitoy, Shri Lanka va Vyetnamda tabiiy kauchuk ko'p ishlab chiqariladi. Sintetik kauchuk — sun'iy yo'l bilan rezina olinadigan yuqori polimer material (elastomer). Sintetik kauchuk turli birikmalarni polimerlab va sopolimerlab olinadi. Suyuq kauchuklar, ularning suvdagi dispersiyasi (sintetik latekslar), shuningdek, polimerlanish jarayonida yog', qorakuya va to'ldiruvchilar qo'llab olinadigan kauchuk ham sintetik kauchukdir. Ba'zi sintetik kauchuklarni olishda uglevodorodlarning bifunksional hosilalarini polikondensatslash usuli qo'llaniladi. Sintetik kauchuk olish 2 asosiy jarayon: monomer (kauchogen)lar tayyorlash va ularni polimerlash yoki polikondensatslashdan iborat. Butadiyen, stirol, izopren, xlorpren, izobutilen, akrilonitril (vinil sianid) va bilan kauchogenlar sifatida ishlatiladi.


Kauchogenlarning o‘zi esa neft krekingi gazi, tabiiy va yo‘lakay gazlar, etil spirtidan olinadi. Kauchogenlarni polimerlash jarayonida monomerlar katalizator (mas, natriy metali) ishtirokida (monomerning o‘zi yoki eritmasi, suvli emulsiyasi) qizdiriladi. Polimerlashda emulsiya polimer suspenziyaga, ya’ni sintetik lateksga aylangach, koagulyasiyalanadi. Ajralib chiqqan kauchuk yuvib quritiladi. Hozirda sintetik kauchukning 20 ga yaqin turi ishlab chiqariladi. Bulardan butadiyen kauchuk, butadiyennitrilakril kauchuk, butilkauchukning sanoatdagi ahamiyati katta. Sintetik kauchukning ko‘p turlari tabiiy kauchuk singari vulkanizatsiyalanib, yuqori elastik yoki qattiq materialga aylanadi. Asosi kremniy, uglerod, kislorod atomlari zanjiridan iborat. kauchukka o‘xshash elastik materiallar (issiqqa chidamli silikon kauchuk, [Kremniyorganik birikmalar](#)) yoki uglerod va oltingugurt atomlaridan iborat polisulfid kauchuk, polifosfonitrilxlorid, polidixlorfosfezen va ayrim polixlorvinil smolalar ham sintetik kauchukka kiradi. Sintetik kauchuk yog‘ va organik moddalarga (mas, butadiyen - nitril kauchuklar), issiq va sovuqqa (mas, kremniy organik kauchuklar) chidamli bo‘lishi kerak.

Ba’zi sintetik kauchuklar texnik xossalari (mas, issiqqa, erituvchilarga, yemiruvchi muhitlarga va ishqalanishga, yorug‘lik va ozon ta’siriga chidamliligi, gaz o‘tkazmasligi va bilan)ga ko‘ra, tabiiy kauchukdan afzal. Sinetik kauchuklardan 50 mingga yaqin nomda mahsulotlar ishlab chiqariladi. Birinchi sintetik Kauchokni 1879 y. G. Busharda (Fransiya) olgan; sanoat miqyosida ishlab chiqarishni S.V.Lebedev (Rossiya) 1932 y.da yo‘lga qo‘ydi. Sintetik kauchuk olish iqlim va geografik sharoitlarga bog‘liq bo‘lmaganligi, mehnat unumdorligining yuqoriligi va arzon xom ashyo bazasining mavjudligi tufayli katta iqtisodiy foyda beradi. Kauchuk shina, amortizatorlar, yelimlar, sanitariya-gigiyena mahsulotlari va boshqa ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Jahon miqyosida har yili 16,5 mln.t kauchuk (4,5 mln.t tabiiy va 12 mln.t sintetik kauchuk) ishlab chiqariladi.

Etilenpropilen kauchuklar.

Etilenpropilen kauchuklar — etilenning propilen bilan (qo‘sh sopolimerlar) yoki etilenning propilen bilan oz miqdordagi uchinchi somonomer.— qo‘sh bog‘li diyen ishtirokida sopolimerlanish (uchlik sopolimerlar) mahsulotlari. Etilenpropilen kauchuklarning zichligi $850\text{--}870\text{ kg/m}^3$. To‘yingan qo‘sh sopolimerlar peroksidlar, dimaleinimidlar, xlororganik birikmalar bilan vulkanizatsiya qilinadi. To‘yinmagan uchlik

sopolimerlar uchun oddiy oltingugurtli vulkanizatsiya usullari qoʻllanadi. Etilenpropilen kauchuklar asosidagi rezinalarning muhim xossalari issiqqa va ozonga bardoshlilik, kislorod bilan oksidlanishga, kislotalar va ishqorlar taʼsiriga chidamlilik, elektrizolyatsion xossalari yuqoriligi hisoblanadi. Oʻtkazgichlar va kabellarni izolyatsiyalashda yuqori atmosferaga bardoshli turli rezinatexnik buyumlar (mas, avtomobil oynalari zichlagichlari), sergʻovak yumshoq materiallar va boshqalar ishlab chiqarishda qoʻllanadi.




Vinilpiridin kauchuklar

Vinilpiridin kauchuklar — sintetik kauchuklar; diyen uglevodorodlarning vinilpiridinlar yoki ularning hosilalari bilan sopolimerlanishidan hosil boʻlgan mahsulotlar. Vinilpiridin kauchuklarda vinilpiridin zanjirining miqdori odatda 30% dan oshmaydi. Vinilpiridin zanjiridan tashqari, stirol, akrilonitril, metakril kislota zanjirlariga ega boʻlgan uchlamchi sopolimerlar ham maʼlum. Vinilpiridin kauchuk suvli emulsiyada monomerlarni sopolimerlab olinadi. Benzol, toluol, benzolda eriydi, 15% dan ortiq vinilpiridini boʻlgan kauchuklar keton va murakkab efirlarda eriydi. Piridin guruhlari borligi sababli Vinilpiridin kauchuk ionlashtiruvchi nurlar taʼsiriga chidamli boʻladi. Xloranil ishtirokida Vinilpiridin kauchukdan olingan rezina 200° gacha temperaturada moylar, eritmalar, sintetik surkov moylari taʼsiriga chidaydi. Vinilpiridin kauchukdan tayyorlangan rezina sovuqqa oʻta chidamliligi bilan butadiyennitril kauchuklardan tayyorlangan rezinadan farq qiladi.


Vinilpiridin kauchuk—50 dan 180° gacha haroratda ishlatiladigan zichlovchi rezina shlanglar tayyorlashda, shuningdek avtomobil shinalari, yelim, moyga va gidravlik suyuqliklarga chidamli rezina mahsulotlar ishlab chiqarishda qoʻllaniladi.

Tabiiy kauchukning kimyoviy tuzilishini asosan Garries o'rgangan bo'lib, izopren molekulalaridan tashkil topganligi aniqlangan. Buning uchun kauchuk ozonlash reaksiyasiga uchratilgan, so'ngra hosil bo'lgan modda parchalanganda izopren oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan levulin aldegid olingan



Tabiiy kauchukning molekulyar og'irligini Shtaudinger tekshirgan va 200,000 bilan 400,000 orasida bo'lishini aniqlagan.

Keyingi tekshirishlarga ko'ra, tabiiy kauchuk izoprenning (2-Metil butadien-1,3) ikki xil fazoviy izomer polimeridan tashkil topganligi aniqlandi. Fazoviy izomerning birinchisi sis-polizopren bo'lsa, ikkinchisi trans-polizoprendir.



trans-polizopren

Trans-polizoprendan iborat tabiiy kauchuk guttapercha deyiladi. Guttapercha sof holda elektr simlarini qoplashda, elim tayyorlashda va hokazolarda ishlatiladi.


Hozirgi vaqtda tabiiy kauchuklar o'rnida ishlatsa bo'ladigan sintetik kauchuklar ishlab chiqildi. Masalan, guttapercha o'rnida sintetik kauchuk – nayrit NT, sis-polizopren

kauchuk o`rnida ishlatiladigan sintetik izopren kauchuk va hokazolar olinadi. Ammo, shunday bo`lsa ham hanuzgacha tabiiy kauchuk texnikada o`z qimmatini yo`qotgani yo`q.

Sintetik kauchuklar. Sintetik kauchuklarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari tabiiy kauchuknikidan tubdan farqlanishi mumkin. Shuning uchun ham ba`zi sintetik kauchuklarning xossalari tabiiy kauchuknikidan afzaldir. Masalan, kauchuk sintez qilinganda uni sovuqqa chidamli, gaz o`tkazmaydigan, benzin hamda yog` ta`siriga chidamli qilish mumkin.


Quyida ba`zi sintetik kauchuklar bilan qisqacha tanishib o`tiladi.

Natriybutadien kauchuk. Birinchi marta akademik S.V. Lebedev 1,3-butadienni polimerlanish reaksiyasiga uchratib sintetik kauchuk hosil qildi va u butadien sintetik kauchugi deb ataladi. Keyingi yillarda butadiendan stereogulyar tuzilishga ega bo`lgan va sovuqqa chidamli, cho`ziluvchan, mustahkam, kam emiriluvchan xossalarga ega kauchuklar olindi. Bunday kauchuk avtomashina pokrishkalari olishda ishlatiladi. Undan tashqari kauchuk tarkibiga karboksil gruppalar kiritilib, uning metallga yopishqoqlik xususiyatlari birmuncha oshirildi.



karboksilat kauchuk

Butadien-stirol kauchugi. Bunday kauchuklar butadien bilan stirolning sopolimerlanish hosil bo`ladi:




stirol

Kauchukning xossasi reaksiyaga kirishuvchi komponentlarning nisbatiga va temperaturasiga bogʻliq. Masalan, 10 qism butadien, 90 qism stirol bilan reaksiyaga kiritilsa va reaksiya 50⁰ da olib borilsa vazni engil kauchuk olinadi. Reaksiya +50 da olib borilganda esa yemirilishga chidamli kauchuk hosil boʻladi.


Izopren kauchuk. Bu kauchuk izoprenni maxsus katalizator ishtirokida polimerlab olinadi. Katalizatorning xiliga qarab poliizoprenning tuzilishi ham oʻzgaradi; cis yoki trans-izomer holdagi poliizopren hosil boʻladi.

Butil kauchuklar izobutilen bilan izoprenning sopolimerlanishidan hosil boʻladi:



Bunday kauchuklar issiqqa chidamli, gaz oʻtkazmaydi, oksidlanmaydi va yuqori dielektrik xossaga egadir. Ammo, metallarga yopishqoqligi kam boʻlganligidan ularning ishlatilishi sohasi cheklangan. Sanoatda butilkauchukning modifikasiyalangan xili, yaʼni xlorbutil, brombutilkauchuklar ishlatiladi. Ulardan, koʻpincha, kamerasiz yuradigan avtomashina pokrishkalari tayyorlanadi.

Xloropren kauchuk. Bu kauchuk 2-xlor-1,3-butadien (xloropren)–ning polimerlanishi natijasida hosil boʻladi:



Xloropren past temperaturada polimerlanganda nairit deyiladigan kauchuk hosil boʻladi. Xloropren stirol bilan sopolimerlanganda – nairit C kauchuk olinadi. Bunday

kauchuklar benzin va yog` ta`siriga, oksidlanishga, issiqqa chidamli bo`ladi. Shuning uchun ulardan turli xil sanoat buyumlari, transportyorlar, yelimlar tayyorlanadi.

Kauchiklarni saqlash

Kauchukning xossalari uzoq saqlash davomida o`zgarishi mumkin. Bunga asosan kislorod ta`sirida kechishi mumkin. Saqlash uchun sharoit doimiy xarorat va xavo namligi. Kondensat namligi yuqori bo`lgan xolatlarda kauchukning buzilishi kuzatiladi. Kauchuklarni saqlash uchun optimal sharoit 10-15 °S xarorat va 70-75% xavoning nisbiy namligi. Ombor poli yog`ochdan va deraza oynalari sariq yoki yashil rangga bo`yalgan bo`ladi. Kauchuk yonuvchan, shuning uchun ochiq olovdan foydalanish xavfli. Ombor yong`inga qarshi vositalar bilan jixozlangan bo`lishi kerak.



Tayyor mahsulot tavsifi


Ommaviy qo'llaniladigan ko'pgina rezina texnika buyumlar uchun rezina aralashma (avtopokrishkalar, poliklar, rukava, tasma, oyoq kiyim va boshqalar) murakkab tuzilishligidan qat'iy nazar yagona texnologiya: kauchuk va ingredientlarning tayyorlash va tortish, rezina aralashmani aralashtirish bo'yicha amalga oshiriladi. Shundan keyingina rezina texnik buyumning tayyorlash usuliga ko'ra turli polufabrikat (yarim xom ashyo) tayyorlash uchastkalariga yuboriladi.

Rezina texnik buyumlar ishlab chiqarishning yagona texnologiyasi quyidagi bir necha asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1. Xom ashyo materiallarni qabul qilish, saqlash va transport qilish.
2. Kauchuk va ingredientlarni tayyorlash va ishlov berish.
3. Materialni tortish.
4. Rezina aralashmani tayyorlash.

Bunda texnologik jarayonlar va dastgoxlar yuqori samarador, oson boshqaruvchan, rentabel, maksimal mexanizastiyalashgan va avtomatlashgan, oson va qulay xizmat ko'rsatiladigan bo'lishi kerak. Shunday qilib tayyor po'lik bir nechtasi labaroto'riyaga olib boriladi. U yerda po'likni fizik-kimyoviy parametirlari o'rganiladi.

Xozirda zamonaviy texnika orqali Poliulitandan yangi tipdagi poliklar olinmoqda xarorat -50^0 - $+90^0\text{C}$ da xam o'z shaklini yo'qotmaydi agrissiv muxitga chidamli yuqori sifatda chiqmoqda.



Tayyor maxsulot MDP-4 pressdazmol orqali bosma usulda olinadi temperatura 100^0C da olinadi.



Tehnologik jarayon asosiy parametrlari

Uzluksiz ishlovchi vulkanizatorlar. Vulkanizatorlarning klassifikatsiyasi. Sanoatda ishlab chiqarishning progressiv usullarini qo'llanilishi texnologik jarayonlarni o'zgartirilishi va yuqori maxsuldorlikka ega iqtisodiy jihatdan unumdor bo'lgan, uzluksiz ishlab chiqarishini ta'minlaydigan yangi mashinalar yaratilishini talab etadi.

Uzluksiz ishlovchi vulkanizatorlar vulkanizatsiya jarayonini yuqori yoki atmosfera bosimida amalga oshirish imkonini beradi. Birinchi guruxga rezinalangan tasma va lentalar ishlab chiqarishga mo'ljallangan barabanli vulkanizatorlarni, shuningdek yuqori bosim ostida rezina gilamlar, rezinatexnika maxsulotlari va boshqalarni ishlab chiqaradigan vulkanizatorlar konstruktsiyalarini kiritish mumkin. Uzluksiz vulkanizatsiya qilish apparatining germetikligini ta'minlash uni konstruktsiyalashda ancha murakkabliklar keltirib chiqaradi, bu uning asosiy kamchiligidir.


Ikkinchi guruhga rezinalangan gazlamalarni vulkanizatsiya qiluvchi rolikli kameralar, infraqizil nurlanish usulidagi kameralar, o'yiqlik rezina-texnika maxsulotlari uchun tonelli kameralar, shtamplangan galoshlar uchun ishlatiladigan shaxtali kameralar va boshqalarni kiritish mumkin. Atmosfera bosimida uzluksiz ishlovchi vulkanizatorlarning asosiy kamchiligi vulkanizatsiya tezligining pastligi (bu o'z navbatida, vulkanizatsiya apparatining o'lchamlari ortib ketishiga olib keladi) va issiqlikning ko'p yo'qotilishi bilan xarakterlanadi. Vulkanizatsiya tezligini oshirish gaz oqimining tezligi bilan aniqlanadigan issiqlik uzatish koeffitsientini oshirish bilan bog'liqdir.

Uzluksiz ishlovchi sanoat vulkanizatorlarining asosiy konstruktsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Barabanli vulkanizatorlar. Barabanli vulkanizatorlarnig sxemasi ko'rsatilgan. Ichki tomonidan bug' yoki elektr isitgichlar yordamida isitiladigan 1-1,5 diametrli o'yiqlik baraban (1) uzluksiz lenta (3) tomonidan o'z aylanasiining 2/3 qismiga egiladi. Uning egilishi val (5) va eguvchi gidravlik mexanizm (4) tomonidan ta'minlanadi. Baraban va pastki siquvchi vallar (6) orasida vulkanizatsiyalanuvchi material (7) solinadi. Material lenta

tomonidan siqiladi, barabanni egadi va yuqori siquvchi val (2) yordamida ular orasidagi tirqishdan chiqadi. Baraban (1) va lenta (3) orasidagi tirqishda bo'lgan davrida, material, bosim va issiqlik ta'siriga uchraydi. Bunda lenta ham bosim hosil qiladi, ham materialning issiqlik izolyatsiyasini ta'minlaydi. Mashina barabanning sirti silliq yoki gravirlangan bo'lishi mumkin. Lenta yuqori sifatli po'latdan 0,8-1,2 mm qalinlikda tayyorlanadi yoki po'lat sim to'rini ikki tomonlama issiqlikka chidamli rezina bilan qoplash yo'li bilan tayyorlanadi.

«Frensis SHou» firmasida tayyorlangan barabanli vulkanizatorning umumiy ko'rinishi rasmda tasvirlangan. So'nggi yillarda kalta (1,5 m) va uzun (20 m gacha) qilip tasmalarini uzluksiz vunkanizatsiya qilish uchun Chex firmalari tomonidan maxsus barabanli (rotatsion) vulkanizatorlar yaratilgan. Vulkanizatsiya-lanmagan tasmalar konsolli ishchi (isitiluvchi) va tortiluvchi barabanga kiydiriladi. Bosim tasmaga tortiluvchi baraban va egiluvchan po'lat tasma tomonidan beriladi. Tasma ustki rolidlarga kiyiladi va ularni ishchi barabanga siqadi. Vulkanizatsiya harorati 150- 160°S, vaqti 2-15 min ni tashkilaydi.



Polik ishlab chiqarish uchun valetslar va rotorli mashinalar.

Valli mashinalar bir biriga uyg'un ravishda aylanuvchi vallardan (2dan - 5 gacha) iborat qurilmadir. Vallarning gorizontal o'qlari o'zaro paraleldir. Ularning dastaklari staninaga joylashgan podshipniklarga tiralib turadi va bunda vallar umumiy yoki alohida alohida elektr dvigatellari yordamida o'tkazgichlar orqali aylantiriladi. Barcha vallarning aylanma tezligi bir hil, sikl xar xil bir juftdagi vallar tezliklarining friktsiya G' deb ataluvchi nisbati mashinaning qo'llanilish maqsadiga qarab $G' = 1:1$ dan $G' = 3:1$ gacha bo'lishi mumkin.

Mashinaga solingan xom ashyo vallarning orasidagi tirqishga tushadi. Vallar orasidan o'tishda eziladi va ularga o'raladi. Ishlov oxirida maxsus pichoq yordamida qirib olinadi.


Elastik jismlar sanoatida valli mashinalar keng qo'llaniladi:

1) Xom aralashmalar (kauchuk polimerlari, texnik uglerod, to'ldiruvchilar, plastifikatorlar va boshqalar)ni intensiv aralashtirishda, gomogenizatsiya qilishda va plastikatsiya qilishda, ya'ni plastifikatorlarni polimerlar makromolekulalariga aralashtirishda;

2) vallar yordamida ishlov berilgan jinslardan list yoki plyonka olishda.

Rezina texnik mahsulotlarini ishlab chiqarishda bochkasini uzunligi 1000-1600 mm, valning diametri 400-650 mm bo'lgan qo'shval mashinalar keng qo'llaniladi. Ba'zi hollarda esa, kattaroq o'lchamdagi mashinalardan foydalaniladi ($D = 900mm$, $L = 2000 mm$). Vallarning aylanma tezligi 20 —35 m/min; fraktsiya, ya'ni vallar aylanma tezliklarining nisbati 1 dan 1,3 gacha bo'ladi. Fraktsiya mavjud bo'lganda, tirqishdan chiqayotgan material qatlami sekin aylanuvchi val tomonga egilishga intiladi ana shu valga yopishadi. SHuning uchun ham, mahsulotni qirib olish jarayonida qo'l mehnati talab etiladigan davriy qo'shval mashinalarda ishchi o'rniga yaqin

joylashgan valga kichik tezlik beriladi. Uzlüksiz ishlovchi qo'shval mashinalarida, aksincha, vallangan mahsulotni mashinaning orqa tomonidan uzlüksiz ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun xam ularda orqa val kichikroq tezlikga ega bo'ladi. Biroq, shuni xam ta'kidlash lozimki, materialning vallardan biriga yopishishi faqat uning tezliklari farqigagina bog'liq bo'lmay, balki ularning temperaturasi va sirt tuzilishiga ham bog'liqdir.




Fraktsiyaning vallardan chiqayotgan mahsulot yo'nalishiga ta'siri.

Aralashtiruvchi-plastikatsiyalovchi tipik qo'shval mashinalarning konstruksiyasi keltirilgan. (1) plitada stanina joylashgan bo'lib ular o'zaro bir-biriga tortqich bilan bog'langan. Staninaning gorizontal tekisliklarida har ikki tomondan ikkitadan podshipnik (4 va 5) o'rnatilgan. Qo'zg'almas (4)podshipniklarda (9) orqa val aylanadi. Oldingi val (10) o'rnatilgan 5 podshipniklar esa, vallar orasidagi tirqishni o'zgartirish maqsadida, mahsus vintlar (6) yordamida 10 mm gacha surilish imkoniyatiga ega. Vintlarning gaykalari (7) stanina o'yiqlariga o'rnatilgan. Xar bir stanina, vallar va podpshpniklar o'rnatilgandan so'ng travers (8) bilan yopib qo'yiladi. Vallar elektrodvigateldan reduktor, tishli g'ildirak, friktsi shesternyalar yordamida harakatga keltiriladi (rasmda ko'rsatilmagan).

Qo`shval mashinalar vallarni qizdirish, markazlashgan moylash sistemasi va avariya xolatida to`xtatish moslamalari bilan to`ldiriladi. Vallanadigan mahsulot eni strelkalar (12) bilan chegaralanib turiladi.

Vallar sifatli cho`yandan quyiladi; valning ishchi qismi (bochkasi) tez sovitiladi va sirt tomondan 20 mm gacha toblanadi. Natijada bochka sirtiing o`ta mustaxkam bo`lishiga erishiladi. ( $N_v > 3000 \text{ n/mm}^2$ ). Cho`yan vallarning kamchiligi ularning temperaturasi tez o`zgarganda sirtining darz ketishidir.

Plastiklarni qayta ishlashda esa temperaturaning tez o`zgarishi sodir bo`lmaydi, chunki butun jarayon davomida vallar qizdirib turiladi. SHuning uchun ham plastiklarni qayta ishlashda cho`yan vallarni po`lat vallar bilan almashtirishga xojat yo`q.



Aralashtirgich qo`shval matpipa sxemasi:

1—ilita; 2—stanina; 3—tortqich; 4 ka 5—podshipniklar; 6—vint;

7—vintning rezbali vtulkasi;

8—travers; 9 va 10—vallar; 11—patnis;

12—chegaralovchi strelka.

qizdiriladigan cho`yan vallar tasvirlangan ( $D = 530 \text{ mm}$ ), Vallarning ishchi qismi mahsus xalqasimon to`siq yordamida moylash mahsulotlarining tushishida himoyalangan (rasmdagi A kism).

Har ikkala valga uning butun sirti bo`ylab tekis taqsimlangan kuch ta`sir etib, u vallarni egilishiga olib keladi. Buning natijasida vallar orasidagi tirqish kengayadi va valning markazida eng katta, chekkalarida esa eng kichik qiymatga ega bo`ladi, ya`ni tirqish valning uzunligi bo`ylab turli kattalikka ega bo`ladi.

Aytib o`tilganidek, plastmassalarga vallarda ishlov berishda vallarni qizdirish lozim. Vallar ko`pincha bug` yordamida qizdiriladi. Vallash katta tezlikda amalga oshirilganda bug` o`rniga qaynoq suv ishlatiladi, bunda suv intensiv ravishda aylantiriladi. SHundagi vallarning temperaturasini kerakli darajada ushlab turishga erishiladi.

Xom-ashyo va materiallar moddiy balansi

Material balansni tuzish loyixasida berilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun smenada, sutkasiga va yiliga zarur bo'lgan xom-ashyo materiallarni hisoblashdir. Buning uchun:

a) mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi: 10 t/yilga-95000 dona po'lik.

b) texnologik yo'qotishlar va nuhsalar me'yori xisoblanadi

g) reseptura tarkibi hisobi

$$1. G = m_0 * K (qaytar + qaytmas)$$

G – 1 ta mahsulotning nominal massasi.

m_0 – 1 ta mahsulotning nominal og'irligi.

K – qaytar va qaytmas jarayonlar koefitsienti.

Ishlab chiqarishdagi qaytar va qaytmas homashyoning
yo'qotilishlari jadvali.

№	Yo'qotilish jarayonlari Turlari	Qaytar	Qaytmas
1.	Tashishdagi (transportirovka)	-	0.005%
2.	Xomashyoning quritish	-	0.005
3.	Aralashtirish	0.1	0.1
4.	Ekstruziyalash	0.2	0.2
5.	Preslash	0.3	0.5
6.	Mexanik qayta ishlash	4	0.3
7.	Texnologik rejimlar	2	1
	Yoqotishlar yig'indisi	6.6	2.155

Press orqali polik ishlab chiqarishda qaytar yo'qotish 6.6

Press orqali polik ishlab chiqarishda qaytmas yo'qotish 2.155

$$6.6 + 155 = 8.755$$

$$K_1 = 8.755 - 1.0875$$

$$G = 1000 * 1.085 = 1087.5 \text{ g}$$

Bosim ostida quyish 8 – 10

Yillik umumiy sarf

$$G_0 = G * Q$$

$$G_0 = 1087.5 * 95000 = 103.312500 \text{ kg} = 103.3125 \text{ kg / t}$$

Maxsulot uchun retsept.

Retseptura

№	Kauchuk va ingidirendlar	100 mass/q kauchukga	
1.	Kauchuk BC	100	61.74
2.	Oltingugurt -S-	2.0	1.23
3.	Merkaptobenzotiazol	0.65	0.40
4.	Tetrametiltiuram disulfide	1.3	0.08
5.	Rux oksidi	5.0	3.08
6.	Stearin kislota	3.0	1.85
7.	Texnik uglerod ДГ – 100	50.0	30.87
	Jami	161.95	100%

Hisoblaymiz:

$$1. K_1 = 8.755/100 = 0.08755$$

$$K_1 = 8.755/100 + 1 = 1.08755$$

$$2. G = 1000 * 1.08755 = 1087.55$$

$$3. G_0 = 1087.55 * 95000 = 103.317.250$$

4. 1 dona maxsulot uchun retseptni ishlanishi:

1) $161.95 - 100$

$$10 - x \quad x = 61.7$$

2) $161.95 - 100$

$$2 - x \quad x = 1.23$$

3) $161.95 - 100$

$$0.65 - x \quad x = 0.40$$

4) $161.95 - 100$

$$1.3 - x \quad x = 0.80$$

5) $161.95 - 100$

$$5 - x \quad x = 3.08$$

6) $161.95 - 100$

$$3 - x \quad x = 1.9$$

7) $161.95 - 100$

$$50 - x \quad x = 30.9$$

Maxsulotga ketadigan xomashyoning tonna / kg

5. $K_1 = G_0 * \text{qaytar} = 103.317 * 0.066 = 6.82$

$$K_2 = G_0 * \text{qaytmas} = 103.317 * 0.021 = 2.2$$

$$K_1 + K_2 = 10 \text{ to'na}$$

6. Tashish:

1) Tashish jarayoni

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.005 \quad x = 0.006 \text{ qaytmas}$$

2) Xom ashyoni quritish

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.05 \quad x = 0.06 \text{ qaytmas}$$

3) Aralashtirish

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.1 \quad x = 0.11 \text{ qaytar}$$

4) Ekstruziyalash

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.2 \quad x = 0.23 \text{ qaytar}$$

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.2 \quad x = 0.23 \text{ qaytmas}$$

5) Presslash

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.3 \quad x = 0.34 \text{ qaytar}$$

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.3 \quad x = 0.34 \text{ qaytmas}$$

6) Mexanik qayta ishlash

$$10 - 8.755$$

$$x - 4 \quad x = 4.57 \text{ qaytar}$$

$$10 - 8.755$$

$$x - 0.3 \quad x = 0.34 \text{ qaytmas}$$


7) Texnologik rejimlar

$$10 - 8.755$$

$$x - 2 \quad x = 2.28 \text{ qaytar}$$

$$10 - 8.755$$

$$x - 1 \quad x = 1.14 \text{ qaytmas}$$



Qaytmas	Qaytar
0.006	0.11
0.06	0.23
0.23	0.34
0.34	4.57
0.34	2.28
1.14	
2.116	7.53

7. Korxonadagi ish rejimini tashkiliy hisobi

$$T = 365 - 52 - 52 - 6 - 3 = 252$$

$$T_{\text{soat}} = 252 * 8 = 2016$$

8. Press apparatining ish unumi

$1.5_{\text{min}} - 1$ dona polik

$$2016 - x \quad x = 1344$$


9. $195000/181440 = 1.07$

10. Foydali ish koefitsientini hisoblaymiz

$$Fik = 1/1.07 * 100 = 93\%$$

Asosiy va yordamchi jihozlarni tanlash va hisobi

Rezina buyum ishlab chiqarish sanoatida qo'llaniladigan vulkonlovchi jihozlar asosan avtoklavlar va presslardir. Turlari ko'pligi uchun ularni qo'llash sistemali o'rganishi talab etadi. Funktsional vazifalaridan kelib chiqqan holda, gidravlik presslarni quyidagicha klassifikatsiya qilish (sinflarga ajratish) mumkin:




Presslar konstruksiyasi jixatidan kolonnali va ramali, xarakatlanuvchi stolning orqaga qaytish usuliga ko'ra esa gidravlikasiz qaytishli pastki bosim bilan ishlovchi), maxsus qaytarish silindrli va differentsial bosh plunjirli presslarga bo'linadi.

Presslarning ko'pgina modellari tayyor mahsulotni itarib chiqaruvchi qo'shimcha qurilmaga ega bo'ladi.

rasmda kolonnali presslarning uchta varianti tasvirlangan. Ular bir-biridan harakatlanuvchi stolning qaytarish bo'g'inlari farq qiladi.

500 kn (50t) ga mo'ljallangan to'rt klapnli press (IX.6, a –rasm) yuqori bosimli asosiy silindr, ikkita qaytarish silindri va itarib chiqarish silindrlarga ega bo'lgan presslar tipiga kiradi.

rasmda tasvirlangan press qo'zg'almas stol (3), itarib chiqargich komplekti bo'gini (1), to'rtta kolonpa (9), plunjerli qaytarish silindrning ikkita bosqichli (2), xarakatlanuvchi plitaning 2 ta to'sig'i (7). asosiy silindr bo'g'ini (8) bilan yuqorigi arxivtrav-travers (b.plunjer (6) va xarakatlanuvchi plita 4 lardan tuzilgan.



